

**O'RTA OSIYO DAVLATLARINING XVIII-XIX ASR 1-YARMIDAGI
TARIXIY GEOGRAFIYASI VA KARTOGRAFIK TADQIQOTLAR.**

Do'stmurodov Bahodir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

*“Tarix mamlakatlarva yo’nalishlari bo’yicha” yo’nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi*

Email adress:

zazu87338@gmail.com

[Tel: +998 95 2287981](tel:+998952287981)

Rahimov Javlon

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

*“Tarix mamlakatlarva yo’nalishlari bo’yicha” yo’nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi*

Email adress:

javlonrahimov880@gmail.com

[Tel: +998 93 450 30 74](tel:+998934503074)

Xurramov Otabek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

*“Tarix mamlakatlarva yo’nalishlari bo’yicha” yo’nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi*

Email adress:

Otashbekxurramov28@gmail.com

[Tel: +998 90 872 72 03](tel:+998908727203)

Mahmaraimov Izzat

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

*“Tarix mamlakatlarva yo’nalishlari bo’yicha” yo’nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi*

Email adress:

mahmaraimovizzat@gmail.com

[Tel: +998 95 700 56 09](tel:+998957005609)

G’oyibnazarov Mo’min

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

*“Tarix mamlakatlarva yo’nalishlari bo’yicha” yo’nalishi
1-bosqich 13T-2023 guruh talabasi*

Email adress:

goyibnazarovmumin@gmail.com

[Tel: +998 99 254 34 68](tel:+998992543468)

Anotatsiya: Ushbu maqolada hoziri kun geografiya va tarix fanlarida dolzARB bo'lib kelayotgan XVIII -XIX asrlarda O'rta Osiyoning tarixiy geografiya masalari bilan shug'ullangan tadqiqotchilarining ilmi ma'lumotlari tahlil qilingan

Kalit so'zlar: Oqsuv , Amir,Orol , Denov , Karki , Dishan , Ichan

Qo'qon xonligi Qo'qon xonligiga ming urug'dan chiqqan Shohruxbiy 1710-yili asos solgan bo'lib, Norbo'tabiy davrida (1769 -1800) Chust, Namangan, Xo'jand bekliklari bo'ysundirildi. Olimxon davrida (1800 -1809) Toshkent, Chimkent, Sayram bekliklari bosib olindi. Muhammad Alixon (1822 -1842) 1826-yili xitoylarga qarshi qo'zg'olon ko'targan Sharqiy Turkiston aholisiga yordam berib, Oqsuv, Koshg'ar, Yorkent va Xo'tan viloyatlarini qo'lga kiritdi. 1842-yili Qo'qongabostirib kelgan Buxoro amiri Nasrullo Muhammad Alixon va uning qarindoshlarini qatl ettirdi. Shundan keyin Qo'qon xonligida taxt uchun kurashlar boshlandi. 1845 yili taxtga o'tirgan Xudoyorxon ruslar bostirib kelgandan keyin, ular bilan bitim tuzib, Rossiya vassaliga aylandi. Bunga qarshi Farg'ona 100 vodiysi aholisi qo'zg'olon ko'tardi. 1876-yili Rossiya imperiyasiharbiyari qo'zg'oltonni bostirdilar va bahonada Qo'qon xonligi tugatilib, Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shib yuborildi.

Qadimda Zarafshonni Amudaryo bilan tutashtirgan Moxondaryoning suvsizlikdan keyinchalik qurib qolgan ko'hna o'zanlari hozirgi vaqtida tamoman quruq va usti po'rsiq sho'r hamda atrofi yulg'un bosgan ko'llar orasida deyarli bilinmay ketgan bo'lsa-da, ammo cho'l bag'rida, xususan, barxanlar ostida juda yaxshi saqlangan. Bazi joylarda uning kengligi 30, chuqurligi esa 1,5-2 metrga boradi.

Moxondaryoning o'zanlaridan biri Amudaryoning o'ng qirg'og'iga joylashgan XI-XII asr yodgorligi Nargizqal'a yaqinida 54 to'rtta arnaga ajralib, delta hosil qiladi va chuqur hamda keng jarliklar orqali Amudaryoga borib tutashadi. Jarliklarni mahalliy aholi «suvlot» deb ataydi. Ulardan birinchisi Oxursuvlot, ikkinchisi Jilg'indisuvlot yoki Yulg'unlisuvlot, uchinchisi Sho'rsuvlot yoki Oyxonsuvlot, to'rtinchisi Suvlisuvlot yoki Digisuvlot nomlari bilan mashhur. Bu suvlotlarning eni 75-125, chuqurligi esa 15-20 metrga teng. Moxondaryoning yana bir o'zani Nargizqal'adan 18 km janubisharqda joylashgan Oqrabod mavzei yaqinida Sho'ryotoq, Sariboy, Poyanda, Qumsuvlot va Jarsuvlot kabi beshta tarmoqqa bo'linib, u ham Amudaryoga birlashadi. Shubhasiz, Moxondaryoning kuchli oqimlari natijasida Amudaryoning, baland va mustahkam qirg'oqlari yuvilib hosil bo'lgan bunday chuqur va keng jarliklar qachonlardir uzoq o'tmishda Zarafshon suvlarining Jayxunga tomon qanchalik shiddat

Buxoro taxtiga mang'it urug'idan bo'lgan Muhammad Rahim otaliq o'tirgandan keyin ham (1753) feodal tarqoqlik tugamadi. Xiva xoni o'zini mustaqil deb e'lon qildi. XVIII asr boshtarida o'zbeklarning ming urug' boshliqlari Qo'qon xonligini tashkil etdilar. Shahrisabz, Hisor, Badaxshon hokimlari Buxoro amiriga bo'ysunmay

qo‘ydilar. Faqat amir Shomurod davrida (1785 -1800) hokimiyat bir muncha mustahkamlandi. Amir Nasrullo davrida (1826 -1860) amirlilik hududiga Amudaryo bo‘ylari, janubiy-sharqida Surxondaryogacha bo‘lgan yerlar, Marv va Balx kirar edi. 1842-yili Qo‘qon xonligi ham qisqa muddatda zabit etildi. 1512-yili Xiva xonligiga o‘zbeklar xoni Elbarsxon tomonidan asos solingan edi. Xonlikning poytaxti dastlab Vazir, keyinchalik Urganch va Xiva bo‘lgan. Buxoro amirligi tomonidan bir necha bor bosib olingan Xiva xonligi XVIII asr o‘rtalarida yana mustaqillikni qo‘lga kiritdi. 1763-yilgi taxt uchun davom etgan kurashlardan so‘ng o‘zbek urug‘laridan bo‘lgan qo‘ng‘iroq inoqlari taxtni egalladilar.

Muhammad Rahimxon I davrida (1806 -1825) Xiva xonligi to‘la birlashtirildi, qo‘shni mayda bekliklar, Orol bo‘yi qabilalari qo‘shib olindi. XIX asming birinchi yarmida Qo‘qon xonligi hududiy jihatdan O‘rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g‘arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo‘lgan. Qo‘qon xonligi bilan Rossiya o‘rtasida Mirzacho‘l va Muyunqul cho‘llari yastanib yotgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko‘lob, Darvoz, Sho‘g‘non singari tog‘i o‘lkalarni o‘z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to‘qnashuvlar bo‘ib turgan. Qo‘qon xonligining hududi Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farqli o‘laroq, sersuv daryolar, sotnn vodiylar, serhosil yerbosil boy edi.

Xonlikning markaziy shaharlari Qo‘qon, Marg‘ilon, O‘zgan, Andijon, Namangan Farg‘ona vodiysida joylashgan edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlari ham Qo‘qon xonligi tasarrufida edi. Qo‘qon xonligi 15 beklik, ya’ni harbiy okrugga bo‘lingan botib, ularning yarmidan ko‘piga xonning o‘g‘illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o‘z hududidagi harbiy kuchlar qo‘mondoni hamda fuqaro boshqaruvining boshlig‘i edi. Ular o‘z tasarrufidagi qo‘shinni o‘zlari moddiy jihatdan ta’milaganlar.

Hokimlar harbiy yurishlar oldidan xonning birinchi da’vati bilan o‘z qo‘shinlari bilan belgilangan joyga etib kelishlari shart edi. Qo‘qon xoni zaruriyat tug‘ilganda oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega botgan 60 mingtacha sipohni yig‘a olardi. XIX asrga kelib. Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kv. km ni tashkil etdi. Uning chegaraiari janubda Amudaryoning sof qirg‘og‘idan boshlanib, Sirdaryogacha cho‘zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlilik sharqda Pomir tog‘laridan, g‘arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo‘lgan hududni egallab turardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlari joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari. hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryoiari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murg‘ob daryosi vohalaridagi yerlar ham Buxoro amirligiga qarar edi Buxoro

amirligining poytaxti Sharqda eng mashhur shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroisharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrисabz, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Kitob va boshqalar amirlik tasarufida edi. Marv va Chorjuy shaharlari uchun Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtaida, Jizzax, OTatepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtaida tez-tez urushlar bo'tar, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi. Buxoro amirligi 27 beklik: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrисabz, Chiroqchi, Yakkabog; G'uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo'y, Hisor, Kitob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Sho'g'non-Ro'shon.

Qo'rg'ontepа, Qabodiyon, Kalif, Qoboqli va Xorazm bekliklaridan iborat edi. Bekliklar mahalliy qabila boshliqlari, katta mulk egalari tomonidan boshqariigan. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar beklar idora qilgan. Hokim quzurida yuzlab mahalliy ma murlar xizmat qilgan. Manbalar, amiriikda mahalliy ma'muriar shtati 30 ming kishini tashkii etganligidan guvohiik beradi. Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi, ular mahalliy aholidan olinadigan turli-tuman soliq va to'lovlar hisobiga tirikchilik qilishganlar. Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Kat, Ko'qna Urganch, Xazorasp, Qo'ng'irot, Xo'jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri 1598-yildan boshlab xoniikning poytaxti bo'lgan. Shahar ikki qism -Ichan qal'a (shahaming ichki qismi) va Dishon qal'a (shaharning tashqi qismi)dan iborat edi. Ichan qafada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan. 1842-yilda Dishan qal'a qurilib, devor bilan o'rab olingan. Dishan qal'ada hunannandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar istiqomat qilganlar.

Ma'muriy-hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'hna-Urganch, Qo'shko'prik, Pitnak, G'azovot, Kat, Shohabbos, Shovot, Toshhovuz, Ambormanq, Urganch, Xo'jayli, Shumanay, Qo'ng'irot kabi beklik va viloyatlarga bo'lingan. Xonlik tarkibida Beshariq va Qiyotqo'ng'irot noibliklari ham bo'lgan. Bekliklami xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiqlar idora qilgan. Bek va noiqlar quzurida ularga xizmat qiluvchi ko'pdan-ko'p mansabdorlar bo'lgan.

Xulosa

Varaxsha. Bir nusxa (kitob)da Varaxsha o'rniда Rajfandun deb yozganlar. Katta qishloqlardan biri. U Buxoro shahridan qadimiyoqdir. Unda podshohlarning qarorgohi joylashgan. Yilning oxirida esa yigirma kun bozor qilib, yigirma birinchi kuni navro'z -yangi yil bayramini o'tkazadilar. Buni «Navro'zi kishovarzon» -

«Dehqonlar navro’zi» deydilar. Buxoro dehqonlari (yil kunlari) hisobini o’sha kundan boshlaydilar va bunga e“tibor beradilar. Baykand. Uni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. Baykand aholisi biror kishining Baykandni qishloq deb atashiga rozilik bergen emaslar. Baykandda Buxoro qishloqlari sonicha, mingdan ortiq rabot bo’lgan. Farab shaharlar jumlasidan bo’lib, alohida joylarga ega, Jayhun daryosi labidan to Farabgacha bir farsang, suv toshgan vaqtarda esa yarim farsang keladi. Jayhunning suvi (toshib) Farabgacha borib etgan. Aholi joylashuvida shahriston, ark, rabot hamda voha bo’ylab mavjud tepalar muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro vohasida bir guruh tepalar saqlangan bo’lib, ular hududning geografik joylashuvi va aholi hayot tarzi natijasida vujudga kelgan.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nazirov, B. (2022). O’zbekistonda jismoniy madaniyat va sport tarixi.TAFAKKUR AVLODI.
2. Safarovich, N. B. (2022). Distribution of Modern Sports in Central Asia in Colonial Conditions (Late XIX and Early XX Centuries) Spread of Modern Sports in Middle Asia Under Colonial Conditions (End of the XIX Century-Beginning of the XX Century).CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY,3(12), 21-29.
3. Nazirov, B. S. (2021). O’ZBEKİSTONDA 2017-2020 YILLARDA JİSMONİY MADANIYAT VA SPORТ SOHASIDA YANGI ME’YORİY-HUQUQİY TİZİMNİNG YO’LGА QO’YILISHİ.Academic research in educational sciences,2(4), 1687-1693.

